Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
FILOLOGIYA

NUTQIY AKTLAR NAZARIYASIDA HAZIL-MUTOYIBANING O'RNI VA CHEGARALARI

Nodira Sanakulovna Qobilova*
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
✉ nodirakobilovas@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hazil-mutoyibaga xos nutqiy birliklarni nutqiy akt sifatida tavsiflashga xizmat qiluvchi analitik yondashuv bayon qilinadi hamda ushbu yondashuvni boshqa til va madaniyatga qay darajada ko'chirish mumkinligi masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta muammo tahlil qilinadi: birinchidan, hazilning umuman nutqiy akt sifatida e'tirof etilishi mumkinmi; ikkinchidan, ma'no gap, nutqiy ifoda va so'zlovchi darajalari o'rtasida qanday taqsimlanadi; uchinchidan, so'zlovchi va tinglovchi mazmunni turlicha talqin qilganida qanday jarayonlar yuzaga keladi; to'rtinchidan, nima sababdan mazkur nazariy-metodologik yondashuvni universal tarzda talqin qilish mumkin emas. Tadqiqot natijasida nutqiy aktlar nazariyasi hazil-mutoyiba nutqini tahlil qilish uchun zarur, biroq uning o'zi yetarli emasligi asoslanadi. Ushbu nazariy yondashuvni umumiy bilimlar, ijtimoiy jihatdan maqbul deb topilgan muloqot chegaralari hamda muayyan madaniyatga xos me'yor va tasavvurlarni hisobga oluvchi lingvo-madaniy yondashuv bilan to'ldirish zarur.

Kalit so'zlar

hazil-mutoyiba nutqiy akti, bilvositalik, hazilni anglash kompetensiyasi, ijtimoiy ruxsat, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy pragmatika.

DOI: 10.5281/zenodo.22053890

KIRISH

Pragmatika atamasi, odatda, Morrisga borib taqaladi. U belgilar va ularning obyektlari o'rtasidagi semantik munosabatni, belgilar o'rtasidagi sintaktik munosabatni hamda belgilar va ularni talqin qiluvchilar o'rtasidagi pragmatik munosabatni bir-biridan farqlagan. Shuningdek, Morris pragmatika belgilar faoliyati bilan bog'liq barcha psixologik, biologik va ijtimoiy hodisalarni qamrab olishini ta'kidlagan [1: 6-7, 38].

Mazkur g'oyaning dastlabki ifodalaridan birini Malinovskiyning qarashlarida ham uchratish mumkin. Uning fikricha, kontekstni o'rganish tilshunoslikning tor doirasidan tashqariga chiqib, tildan foydalaniladigan umumiy shart-sharoitlarni ham qamrab olishi lozim. Zero, so'zning haqiqiy mazmuni va mohiyati uni muayyan vaziyatda o'rinli tarzda qo'llash jarayonidagina to'laqonli anglanadi.

Zamonaviy izlanishlarda keltirilayotgan ta'riflarda ham ushbu yo'nalish saqlanib qolgan bo'lib, pragmatika nutqiy ifodalarning muayyan vaziyatlarda qanday ma'no kasb etishini, til va kontekst o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, tildan real hayotdagi so'zlovchilar tomonidan o'z imkoniyatlari va cheklovlari doirasida qanday foydalanishini o'rganuvchi fan sifatida tavsiflanadi [2:5].

Hazil-mutoyibani tadqiq etishda Blum-Kulkaning lingvistik nazariya asosida belgilangan gap (sentence) bilan muayyan kontekstda muloqot birligi sifatida namoyon bo'ladigan nutqiy ifoda (utterance) o'rtasida ajratilgan farqi alohida ahamiyat kasb etadi [3:39]. Hazillar nutqiy ifodalardir va ularni faqat gap sifatida tahlil qilish hazilni hazilga aylantiradigan muhim xususiyatlarning yo'qolishiga olib keladi.

Lich umumiy pragmatikani grammatika va sotsiologiya o'rtasida joylashtiradi. Bunda pragmalingvistika grammatik qutbga, sotsiopragmatika esa ijtimoiy qutbga mansubdir [4:11]. Hazil-mutoyiba nutqiy aktlarini

o‘rganish ushbu yo‘nalishlarning har ikkalasini ham qamrab olish lozim. Hazil ishlab chiqishda ishga solinadigan formal-lisoniy vositalar birinchi qutbga, uning tinglovchiga yetib borishi va kutilgan kommunikativ ta’sirni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan birliklar esa ikkinchi qutbga taalluqlidir. Ikki til ushbu qutblarning har birida bir-biridan mustaqil ravishda farq qilishi mumkin. Shu sababli qiyosiy tadqiqot dizayni har ikkala jihatni ham olishi zarur.

Metodologik nuqtayi nazardan yana bir muhim jihatni inobatga olish kerak. Kontekst o‘zgarmas va tayyor “konteyner” emas. Balki, nutq va kontekst o‘zaro refleksiv munosabatda bo‘lib, kontekst nutqni shakllantirgani kabi, nutq ham kontekstni shakllantiradi. Demak, hazil shunchaki muayyan vaziyat doirasida yuzaga kelmaydi, aksincha, u hazil-mutoyiba sodir bo‘layotgan kommunikativ vaziyatning o‘zini ham qayta shakllantiradi.

Nutqiy aktlar nazariyasi asosida “so‘zlash - harakat qilishdir” degan tamoyil yotadi. Graysning fikricha, so‘zlovchi biror nutqiy ifoda orqali muayyan mazmunni anglatishi uchun u, bir tomondan, tinglovchida ma’lum bir e’tiqod yoki ishonchni yuzaga keltirishni ko‘zlashi, ikkinchi tomondan esa, ushbu niyatining tinglovchi tomonidan anglanishini ham nazarda tutishi kerak [5:383]. Aynan shu holat so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi bilan so‘zlovchining ular orqali anglatmoqchi bo‘lgan ma’nosi o‘rtasidagi tafovutni yuzaga keltiradi. Og‘zaki hazil-mutoyiba aynan mana shu tafovut yuzaga keladigan makonda faoliyat ko‘rsatadi.

Ostin bitta nutqiy ifoda tarkibida uch xil qatlamni farqlaydi. Ular: lokutiv akt - biror narsa aytishning o‘zi; illokutiv akt – uni aytish orqali amalga oshirilgan harakat; perlokutiv akt esa – ushbu nutqiy ifodaning tinglovchida keltirgan ta’siri [6:101–102]. U, shuningdek, konstativ va performativ nutqiy ifodalarni bir-biridan ajratib, performativlarning muvaffaqiyatli amalga oshishini muvaffaqiyatlilik shartlariga bog‘liq deb hisoblaydi.

Hazil-mutoyiba nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, muammo Ostinning sahnada aktyor tomonidan aytilgan, she’r tarkibida yoki monolog tarzida bayon qilingan nutqiy ifodalarni nazariy doiradan chiqarib tashlaganidadir. U bunday nutqiy ifodalarni tilning me’yoriy qo‘llanishiga “parazitlik qiluvchi” shakllar sifatida tavsiflaydi [6:22]. Agar ijro etiladigan nutq ta’rifning o‘zidayoq nazariyadan chiqarib tashlansa, professional hazil-mutoyibaning aksariyat shakllari tahlil boshlanmasdanoq ushbu nazariya doirasidan tashqarida qolib ketadi.

Mazkur cheklov uchta asosiy tanqidiy yondashuv bilan shubha ostiga qo‘yiladi. Derrida bunday tarzda kontekstni cheklash Ostin uchun sun’iy ravishda “xavfsiz” kommunikativ muhit yaratishini ta’kidlaydi [7:323]. Bunday muhitda so‘zlovchining niyati shaffof, ma’no esa aniq deb faraz qilinadi. Bauman esa kommunikatsiya kinoya, hazil, taqlid, iqtibos kabi turli freymlar doirasida amalga oshirishni qayd etadi. Uning fikricha, aynan so‘zma-so‘z talqinga asoslangan freymni boshqa freymlardan ustun qo‘yish uchun yetarli asos mavjud emas, qolaversa, bunday freymning o‘zini ham aniq belgilash oson emas.

Uillis bundan kelib chiqadigan muhim xulosalarni oldinga suradi. Birinchidan, hazil aytish - tildan foydalanishning me’yoriy shakli bo‘lib, uning illokutiv kuchi ko‘zlangan perlokutiv ta’sirni keltirishi ham, keltirmasligi ham mumkin. Ikkinchidan, komik ijrochilarning sahnadagi nutqiy ifodalari uchun qamoqqa tashlangani yoki tajovuzga uchragani esa bunday ifodalar aslo “bo‘sh” yoki real ta’sirdan xoli emasligini ko‘rsatadi [8:131]. Mazkur xulosa hazil-mutoyiba nutqiy aktlarini tadqiq etishga qaratilgan har qanday ilmiy izlanishning zaruriy nazariy shartidir.

Ayni shu nuqtada ta’kidlash joizki, qiyosiy tadqiqot alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ijroga ijtimoiy jihatdan ruxsat berilgan freym bilan kundalik nutq o‘rtasidagi chegara turli madaniyatlarda turlicha belgilanadi. Xususan, askiya aniq belgilangan kommunikativ ko‘proq freymga ega bo‘lgan va omma tomonidan baholanadigan so‘zamollik bellashuvi hisoblanadi. Shu sababli unda amal qiladigan muvaffaqiyatlilik shartlari Ostin nazarda tutgan formal performativlarga kundalik inglizcha suhbatdagi hazil-mutoyibaga qaraganda yaqinroq bo‘lishi mumkin.

Daskal pragmatika va hazil-mutoyiba o‘rtasidagi bog‘liqlikni bevosita ko‘rsatib, hazillar bilvositalikni yuzaga chiqarish imkonini beradigan sotsiopragmatik vositalarga tayanishini ta’kidlaydi [9:98]. Uning modelida gap ma’nosi - so‘zlarning ma’nosini anglash, nutqiy ifoda ma’nosi - ushbu so‘zlarning aniq kontekstdagi aniq referensial ma’nosini tushunish, so‘zlovchi ma’nosi esa - so‘zlovchining ayni kontekstda ushbu nutqiy ifodani qo‘llashdan ko‘zlagan niyatini anglash sifatida farqlanadi [9:96].

Hazillar bilvositalikdan tizimli ravishda foydalanadi: ular tinglovchini muayyan, o‘ziga afzal bo‘lgan talqin sari yo‘naltiradi, biroq bu talqin ochiq-oydin ifodalanmasligi lozim. Natijada talqin jarayoniga so‘zlovchidan ko‘ra tinglovchi ko‘proq hissa qo‘shadi; kulgili ta’sir esa hazilning eng yuqori nuqtasi (punchline) da dastlab afzal bo‘lmagan talqinning aslida to‘g‘ri talqin ekanligi ochib berilganda yuzaga keladi [9:97].

Mazkur nazariy yondashuv kelib chiqishiga ko‘ra G‘arb ilmiy an’analarga mansub bo‘lib, unda madaniy bilimlarning ahamiyati ham katta. Garfinkel tomonidan o‘tkazilgan tajribalar hatto ikki qatorli kundalik oilaviy suhbat ham katta hajmdagi aytilmagan, umumiy qabul qilingan umumiy bilimlarga tayanishini ko‘rsatadi. Uning asosiy xulosasiga ko‘ra, umumiy tushuncha turli xil shaxslarning bir-biriga mos keluvchi bilimlar majmuasining oddiy kesishmasi emas, balki faol ravishda amalga oshiriladigan jarayonidir. Hazil-mutoyiba aynan mana shu bog‘liqlikning eng yaqqol namunasidir, chunki zarur umumiy bilim mavjud bo‘lmagan taqdirda hazilning o‘zi to‘laqonli ravishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Demak, Uillis faqat strukturaviy o‘yinning o‘zi yetarli emasligini ta’kidlaydi. Hazil muallifi yoki ijrochisi hazilga xos semantik mazmunni yaratish uchun madaniy manbalar va bilimlarga tayanishi lozim. Aynan shu nuqtada tadqiqotning pragmatik-diskursiv va lingvomadaniy jihatlari o‘zaro tutashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hazil muayyan kommunikativ harakatni amalga oshiradi, bu harakat muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishi mumkin, aytilgan narsa bilan nazardan tutilgan ma’no o‘rtasidagi tafovut esa hazil-mutoyibaning yuzaga kelish makonidir. Biroq mazkur nazariyaning o‘zigina yetarli emas, chunki u nutqiy ifodalarni alohida-alohida tahlil qilishga moyil, ma’no borasida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida muayyan darajadagi kelishuv mavjudligini faraz qiladi hamda nisbatan tor madaniy asosdan kelib chiqib umumlashtirishga moyildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Morris C.W. Foundations of the Theory of Signs. – Chicago: University of Chicago Press, 1938. – 59 p.
2. Mey J.L. Pragmatics: AnIntroduction. – Oxford: Blackwell, 1994. – 357 p.
3. Blum-Kulka S. Discourse Pragmatics // Discourse as Social Interaction / ed. by T.A.van Dijk. – London: Sage, 1997. – P. 38-63.
4. Leech G. N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.
5. Grice H.P. Meaning // The Philosophical Review. – 1957. – Vol.66, No.3. – P.377-388.
6. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1975. – 168 p.
7. Derrida J. Signature Event Context // Glyph. – 1972. – Vol. 1. – P.172-197.
8. Willis K. Making Sense of Humour: Some Pragmatic and Political Aspects: PhD thesis. – London, 2002. – 296 p.
9. Dascal M. Language Use in Jokes and Dreams: Sociopragmatics vs. Psychopragmatics // Language & Communication. – 1985. – Vol. 5, No. 2. – P. 95-106.

Filologiya sho’basiga